


Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish



5-mavzu: Daraxtlar – bizning do'stlarimiz



5.1. Mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi


Mashg'ulotning maqsad va vazifalari	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Daraxtlar havoni tozalashi, soya berishi, meva yetishtirishi haqida misollar keltiradi. • Interfaol o'yinlar orqali daraxtlarga mehr va g'amxo'rlik hissini shakllantiradi. • Daraxt ekish va uni asrash bo'yicha amaliy ko'nikmalar beradi.	Ta'lim oluvchilar uchun kutilayotgan natijalar: • Daraxtlarning dunyodagi o'rni va ahamiyatini biladi. • Daraxtlar havoni tozalashini, odamlar uchun foydali ekanini tushunadi. • O'simlikka g'amxo'rlik qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. • O'zini "Daraxtlar do'sti" sifatida his qilishi shakllanadi.
O'quv jarayoni mazmuni va mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi	• Kirish – qiziqtirish, qizitish • Asosiy faoliyat – amaliy o'yinlar • Yakun – rag'bat	Shakl: STEAM + interfaol o'yinli mashg'ulot Metod: Tajriba, suhbat, muammoli vaziyat, taqqoslash, guruhlarda ishlash, harakatli o'yin Vosita: Daraxt rasmlari, kartochkalar, qog'oz, qaychi, yelim, markerlar, barglar maketi O'qitish sharoiti: Keng xona, ko'rgazmali materiallar, ijodiy stol, harakat uchun joy

5.2. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Kirish (7 daqiqa)	Taqqoslash: “Daraxt havoni qanday tozalaydi?” Tarbiyachi 2ta rasm ko'rsatadi: • 1-si: daraxtlar bilan • 2-si: daraxtsiz. Bolalarga savol: “Qaysi joyda havo tozaroq deb o'ylaysiz?”	Bolalar: “Daraxtlisi” deb javob beradilar.. Barglar kislorod chiqaradi – daraxtlar havoni tozalaydi.
Asosiy qism (18 daqiqa)	• Interfaol o'yin: “Daraxtlar foydasi – ular nima uchun kerak?” • Harakatli o'yin: “Daraxtni himoya qil! • STEAM amaliy faoliyati: “Kichik daraxt ekamiz”	O'yinda ishtirok etadilar. “Daraxtni himoya qil” o'yinida daraxtlarga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarni yodda qoldiradilar. Amaliy faoliyatda ishtirok etadilar.
Yakuniy qism (5 daqiqa)	Refleksiya savollari: • “Biz daraxtlarga qanday yordam bera olamiz?” • “Daraxtlar nima uchun bizning do'stimiz?” Rag'bat: “Daraxtlar Do'sti” yorlig'i Yulduzchalar va maqto'v.	Daraxtsiz hayot qanday bo'lishini anglaydilar: – Havo iflos bo'lardi; – Qushlar bo'lmasdi; – Soya bo'lmasdi; – Mevalar yetishmasdi.


KO'RGAZMALI MATERIAL

Daraxtli shahar



 Fikrlang!

- Qaysi shaharda havo tozaroq deb o'ylaysiz?
- Qaysi shahar chiroyliroq?
- Daraxt ekishni xohlaysizmi?



Interfaol o'yin: "Daraxtlar foydasi – ular nima uchun kerak?"
Tarbiyachi kartochkalarni aralashtirib ko'rsatadi:
Bolalar kartochkalarni daraxt atrofida to'g'ri joylashtiradilar.

Tarqatmalar

meva	qush uyasi	daraxt soyasi
kislorod	suv	yog'ochdan uy



HARAKATLI O'YIN: "DARAXTNI HIMOYA QIL!"
XONAGA TURLI BELGI KARTOCHKALAR QO'YILADI:

MUSIQA YANGRAGANDA BOLALAR YUGURADI.

MUSIQA TO'XTAGANDA TARBIYACHI BELGI

KO'RSATADI. BOLALAR:

- ✓ BO'LSA – "TO'G'RI" DEB QARSAK CHALADI
- ✗ BO'LSA – "YO'Q" DEB SAKRAYDI



Har bahorda
daraxt ekish

Daraxtni
asrash

Daraxtga suv
quyish

Daraxt
ekmaslik

Daraxt
barglarini
yulish

Shoxlarini
sindirish

Bu o'yin daraxtlarga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlarni yodda qoldiradi.

STEAM AMALIY FAOLIYATI: "DARAXT EKAMIZ"

Bolalar
quyidagilarni
bajaradilar:

- Qog'ozdan daraxt shaklini kesish;
- Barglarni bo'yash;
- Atrofni toza tutish rasmini chizish;
- "MEN DARAXTLAR DO'STIMAN" yorlig'ini yopishtirish.

